



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

MIKROMOLIYA TASHKILOTLARI VA LOMBARDLARNING MOLIYAVIY HOLATI SHARHI

2025-yil I yarim yillik yakuni bo'yicha

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning moliyaviy holati sharhi

Mazkur sharh 2025-yilning I yarim yillik yakunlari bo'yicha mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning asosiy hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, xususan aktivlari, majburiyatlari, kapital va daromadlilikida yuzaga kelgan asosiy tendensiyalarni izohlaydi.

I. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar infratuzilmalari


2025-yilning I yarim yilligi davomida mikromoliyaviy xizmatlar bozorida yangi ishtirokchi sifatida **20 ta** mikromoliya tashkiloti, ularning **139 ta** filiallari (*99 ta mikromoliya tashkiloti va 40 ta lombardlar*) tashkil etilib, umumiy soni **210 ta**, shundan mikromoliya tashkilotlari **120 ta** (*filiallar soni 335 ta*) va lombardlar **90 taga** (*filiallar soni 111 ta*) yetdi.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tarkibida chel el kapitali mavjud bo'lgan mikromoliya tashkilotlari soni o'tgan yilning I yarim yilligiga nisbatan 5 taga ortib, 2025-yilning I yarim yilligida **20 taga** (*mikromoliya tashkilotlari 12 ta va lombardlar 8 ta*) yetgan.


1-chizma

2-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar
bosh ofislari soni



Mikromoliya tashkilotlari va
lombardlarning filiallari soni




Bunda, faoliyat yuritayotgan mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning eng ko'p qismi **Toshkent shahri (64 ta mikromoliya tashkiloti va 47 ta lombard)** va **Farg'ona viloyati (19 ta mikromoliya tashkiloti va 4 ta lombard)** hissasiga to'g'ri kelsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatlarida **1 tadan** bosh ofislari joylashgan.

Dislokatsiya bo'yicha **Toshkent** shahrida lombardlarning **36 ta** filiallari va mikromoliya tashkilotlarining **31 ta** filiallari faoliyat yuritrsa, **Sirdaryo** viloyatida mazkur ko'rsatkich mos ravishda jami **3 ta** va **10 tani** tashkil etadi.


3-chizma

4-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar bosh ofislarining hududlardagi taqsimoti



Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning filiallari sonining hududlardagi taqsimoti



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


II. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlash amaliyotlari va ularning segmentatsiyasi

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan 2025-yil yilning yanvar-iyun oylarida jami **13,3 trln so'm** miqdorida kreditlar ajratilib, kreditlash miqdori o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,1 barobarga**, xususan mikromoliya tashkilotlarida **2,2 barobar** va lombardlarda **31 foizga** oshgan. Bunda, kreditlashning **90 foizi (12,0 trln so'mi)** mikromoliya tashkilotlari va **10 foizi (1,3 trln so'mi)** lombardlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning **12,8 trln** so'mi yoki **97 foizi jismoniy shaxslar** va **417 mlrd** so'mi yoki **3 foizi yuridik shaxslar** hissasiga to'g'ri keladi.

5-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Ajratilgan kreditlar segmentatsiyasida 2025-yilning yanvar-iyun oylari davomida ajratilgan **onlayn** kreditlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan **26 foizga** ortib, mikromoliya tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlardagi ulushi **66 foizga** yetgan.

Onlayn kreditlash hajmining keskin oshishi jismoniy shaxslar tomonidan **“Uzum Market”** elektron platformasi, **“Uzum Tezkor”** yetkazib berish xizmati va **“Uzum Nasiya”**ga ulangan boshqa savdo shahobchalardan tovar xom-ashyo sotib olishda, **“Tezkoin”** (5,6 trln so'm) **“Shaffof-Moliya”** (2,3 trln so'm) va **“Peyleyter”** (56 mlrd so'm) mikromoliya tashkilotlari tomonidan onlayn kreditlar ajratilishi bilan izohlanadi.

Ajratilgan onlayn va oflayn kreditlarning segmentatsiyasi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlarida islomiy moliyalashtirishga oid “murobaha”, “islomiy ijara”, “salam”, “mushoraka” va “muzoraba” xizmatlari ko'rsatilishiga ruxsat etilgan.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida **3,9 mlrd so'mlik** islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, ushbu ko'rsatilgan moliyaviy xizmatlarning barchasi “murobaha” xizmatiga to'g'ri keladi.


“Mikromoliya tashkilotlari tomonidan islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatish tartibi to'g'risida”gi Nizom (ro'yxat raqami 3536, 2024-yil 26-iyul) qabul qilingandan so'ng, mikromoliya tashkilotlariga islomiy moliyalashtirishga oid xizmatlarni ko'rsatishga ruxsat berildi.

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorlari bo'yicha segmentatsiyasida 2025-yilning yanvar-iyun oylarida ajratilgan kreditlarning **60 foizi 10 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlarni, **10-20 mln so'mgacha** va **20-50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushining har biri **15 foizdan** va **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **10 foizni** tashkil etgan.

O'tgan bir yilda **10 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **ulushi 14 foizga**, **10-20 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **1 foizga** oshgan bo'lsa, **20-50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **9 foizga** va **50-100 mln so'm** miqdoridagi kreditlarda **6 foizga** kamaygan.

7-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorlari segmentatsiyasida **100-200 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **51 foizni**, **200-300 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **30 foizni**, **300 mln so'mdan yuqori** bo'lgan kreditlar ulushi **7 foizni**, **50 mln so'mgacha** va **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar har birining ulushi **6 foizni** tashkil etgan.

Joriy yilning II choragi yakunida o'tgan yilning hisobot sanasiga nisbatan **50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar **ulushi 1 foizga**, **300 mln so'mdan yuqori** bo'lgan ajratilgan kreditlar ulushi **2 foizga** va **200-300 mln so'mgacha** bo'lgan ajratilgan kreditlar ulushi **3 foizga** oshgan bo'lsa, **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **5 foizga**, **100-200 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **1 foizga** kamaygan.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Joriy yilning o'tgan olti oyi yakunlari bo'yicha ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning foiz stavkalari.

Mikromoliya tashkilotlarida joriy yilning iyun oyida ajratilgan mikroqarzlarining o'rtacha tortilgan foiz stavkasi **60,2 foizni** tashkil etib, eng quyi va yuqori cheraga 42-109,5 foiz oralig'ida shakllangan.

Mikrokreditlarda o'rtacha tortilgan foiz stavka **55,3 foizni** tashkil etgan bo'lsa, eng quyi va yuqori cheraga 44,9-72 foiz oralig'ida shakllangan.


Joriy yilning iyun oyida ajratilgan jami mikroqarzlarning **0,2 foizi** eng quyi chegara – yillik 42 foizdan, **1,9 foizi** eng yuqori chegara – yillik 109,5 foizdan ajratilgan bo'lsa, mikrokreditlarning **6,5 foizi** eng quyi chegara (yillik 44,9 foizdan), **2,3 foizi** eng yuqori chegarada (yillik 72 foizdan) ajratilgan.

9-chizma

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan mahsulotlar kesimida ajratilgan kreditlarning yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkasi

Subyekt turlari bo'yicha iyun oyida **jismoniy shaxslarga** ajratilgan mikroqarzlarning foiz stavkalari 36-109,5 foiz koridorida, **YATT** va **yuridik shaxslarga** ajratilgan mikrokreditlar 41-60 foiz koridorida shakllangan bo'lib, yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkalari mos ravishda **59,9** va **50,9 foizni** tashkil etgan.

10-chizma


Mikromoliya tashkilotlari tomonidan subyekt turlari bo'yicha yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkasi

Lombardlar tomonidan iyun oyida jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarining foiz stavkalari 60-109,5 foiz koridorida shakllangan bo'lib, yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkasi **97,8 foizni** tashkil etgan.

2025-yilning iyun oyi davomida lombardlar tomonidan ajratilgan mikroqarzlarining 0,1 foizi eng quyi chegaraga (yillik 60 foizdan) va 48,2 foizi eng yuqori chegaraga (yillik 109,5 foizdan) to'g'ri keladi.

11-chizma


Lombardlar tomonidan ajratilgan mikroqarzlarining yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkalari



III. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi


3.1. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning aktivlari qoldig'i o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,6 barobarga** ortib, 2025-yil 1-iyul holatiga **10 trln** so'm doirasida shakllangan. Bunda, **mikromoliya tashkilotlarining** aktivlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,6 barobarga** (**3,9 trln so'mga**) o'sib, **9,4 trln** so'mga yetgan bo'lsa, **lombardlar** aktivlari **1,5 barobarga** (**193 mlrd so'mga**) oshib, **606 mlrd** so'mga yetgan.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar aktivlari miqdori



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami aktivlarining **95 foizi** (9,5 trln so'mi) kredit qo'yilmalari hissasiga to'g'ri kelib, aktivlar o'sishi asosan kredit qo'yimlarining **1,6 barobarga**, xususan mikromoliya tashkilotlarida **1,7 barobarga**, lombardlarda **1,5 barobarga** o'sishi hisobiga yuzaga kelgan. Natijada, 2025-yilning I yarim yillik yakunida mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlarining barcha kredit tashkilotlar umumiy kredit qoldig'idagi ulushi **1,6 foizga** yetdi.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar
kredit qo'yilmalari dinamikasi

Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan **jismoniy shaxslarga** ajratilgan kreditlar qoldig'i o'tgan bir yilda 1,5 barobarga oshib, **8,4 trln so'mni**, shuningdek **yuridik shaxslarga** ajratilgan kreditlar qoldig'i 3,8 barobarga oshib, **1,1 trln so'mni** tashkil etgan.

Bunda, YATT va yuridik shaxslarga ajratilgan **mikrokreditlar** qoldig'i qariyb **4** barobarga ko'payib, **1 trln so'mga**, faktoring xizmatlari hajmi **4,1** barobarga oshib, **124 mlrd so'mga** yetgan bo'lsa, lizing xizmatlari hajmi **40 foizga** kamayib, **7,2 mlrd so'mni** tashkil etgan.

14-chizma

**Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan
kredit turlari qoldig'i (mlrd so'm)**


2024 yil 1-iyul holatiga



■ mikroqarz
■ faktoring
■ iste'mol kreditlari

■ mikrokredit
■ lizing

2025 yil 1-iyul holatiga



■ mikroqarz
■ faktoring
■ iste'mol kreditlari

■ mikrokredit
■ lizing


Mikromoliya tashkilotlarida muammoli kreditlar qoldig'i (NPL) joriy yilning 1-iyul holatiga **436 mlrd so'm** yoki **4,8 foizni** tashkil etib, yil boshiga nisbatan **246 mlrd so'm** yoki **2,4 foiz** bandga oshgan.

Bunda, yil boshiga nisbatan "shubhali" kreditlar 2,6 barobarga (253 mlrd so'mga) oshgan bo'lsa, "umidsiz" kreditlar 28 foizga (7 mlrd so'mga) kamaygan. Muammoli kreditlarning (NPL) 413 mlrd so'mi (96 foiz) shubhali, 18 mlrd so'mi (4 foiz) umidsiz kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

Mazkur muammoli kreditlar o'sishining 90 foizi **"Tezkoin"** (142 mlrd so'm) va **"Shaffof-moliya"** (80 mlrd so'm) mikromoliya tashkiloti hissasiga to'g'ri kelgan.

Muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti (*NPL coverage ratio*) joriy yil boshiga nisbatan **5 foiz** bandga kamaygan holda, 2025-yil II choragi yakuni bo'yicha **52 foizni** tashkil etgan.

15-chizma




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

3.2. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar majburiyatlari

2025-yilning I yarim yilligi yakunida o'tgan yilning mos davriga nisbatan mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami majburiyatlari **1,7 barobarga** (2,9 trln so'mga) oshib, **6,7 trln** so'mni tashkil etgan. Xususan, **mikromoliya tashkilotlarining** majburiyatlari **1,7 barobarga** (2,8 trln so'mga) oshib, **6,6 trln** so'mni, **lombardlarda** esa **1,5 barobarga** (39 mlrd so'mga) ko'payib, **125 mlrd** so'mni tashkil etgan.

16-chizma




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Mikromoliya tashkilotlari jami majburiyatlarining **15 foizi** (1 trln so'm) ta'sischi, **34 foizi** (2,2 trln so'm) tijorat banklari, **6 foizi** (395 mlrd so'm) xalqaro moliya institutlari, **26 foizi** (1,8 trln so'm) mahalliy kompaniyalardan, **4 foizi** (239 mlrd so'm) obligatsiyalarni joylashtirish va **15 foizi** (994 mlrd so'm) boshqa majburiyatlar hisobidan shakllangan.

Bunda, majburiyatlar tarkibida ta'sischi mablag'lari **1,6 barobar** (384 mlrd so'm), tijorat banklari resurslari **1,2 barobar** (425 mlrd so'm), xalqaro moliya institutlari mablag'lari **1,4 barobar** (103 mlrd so'm), mahalliy kompaniyalardan jalb etilgan mablag'lar **5,1 barobar** (1411 mlrd so'm) va obligatsiyalarni joylashtirishdan tushgan mablag'lar **4,4 barobarga** (185 mlrd so'm) oshgan.

17-chizma

Mikromoliya tashkilotlari majburiyatlar tarkibi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Lombardlarning jami majburiyatlari 2025-yil 1-iyul holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,5 barobarga** oshgan holda **125 mlrd so'mni** tashkil etib, uning **56 foizi** (70 mlrd so'm) ta'sischi, **17 foizi** (21 mlrd so'm) tijorat banklaridan jalb etilgan mablag'lar va **28 foizi** (35 mlrd so'm) boshqa majburiyatlar hisobidan shakllangan.

Bunda, lombardlar jami majburiyatlari tarkibida ta'sischi mablag'lari **2 barobarga** (34 mlrd so'm) va tijorat banklari resurslari **1,8 barobarga** (10 mlrd so'm) oshgan bo'lsa, boshqa majburiyatlari **12 foizga** (5 mlrd so'm) kamaygan.

18-chizma

Lombardlar majburiyatlari tarkibi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari


3.3. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kapitali

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapitali o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 barobarga** (911 mlrd so'm) ko'payib, 2025-yil 1-iyul holatiga **3,2 trln** so'mga yetgan. Bunda, **mikromoliya tashkilotlarining** jami kapitali **1,4 barobarga** (758 mlrd so'm) oshib, **2,8 trln** so'mni va **lombardlarda** **1,5 barobarga** (153 mlrd so'm) o'sib, **481 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali o'sishida ustav kapitalining **525 mlrd so'm** (54 %), joriy yil foydasi **42 mlrd so'm** (10 %), zaxira kapitali **45 mlrd so'mga** (60 %) hamda taqsimlanmagan foyda **145 mlrd so'mga** (28 %) oshishi, lombardlarda esa ustav kapitalining **58 mlrd so'm** (60 %), joriy yil foydasi **26 mlrd so'm** (32 foiz), taqsimlanmagan foyda **68 mlrd so'm** (49 foiz) hamda zaxira kapitalining **2 mlrd so'mga** (18 foiz) o'sishi hisobiga yuzaga kelgan.


19-chizma

**Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapitali
dynamikasi**




Shuningdek, 2025-yilning I yarim yilligida o'tgan yilning mos davriga nisbatan xorij kapitali ishtirokidagi mikromoliya tashkilotlarining ustav kapitali **2,9 barobarga** (150 mlrd so'm) va lombardlarda esa **3,7 barobarga** (49 mlrd so'm) oshgan.

20-chizma

Ustav kapitalida xorij kapitali mavjud
mikromoliya tashkilotlari

21-chizma

Ustav kapitalida xorij kapitali mavjud
lombardlar

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

3.3.1. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar rentabellik ko'rsatkichlari

2025 yil yanvar-iyun oylari yakunlari bo'yicha mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami daromadlari **2,4 trln so'mni**, jami xarajatlari **1,9 trln so'mni** tashkil etib, jami **569 mlrd so'm** miqdorida sof foyda olingan.

Bunda, **mikromoliya tashkilotlarida** jami daromadlar **2,2 trln so'mni**, jami xarajatlar **1,7 trln so'mni** va sof foyda **462 mlrd so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **lombardlarda** esa jami daromadlar **230 mlrd so'mni**, xarajatlar **123 mlrd so'mni** tashkil etib, **107 mlrd so'm** miqdorida sof foyda olingan.

3.3.2. Aktivlar va kapital rentabelligi

Mikromoliya tashkilotlarida aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA) 2024-yilning I yarim yilligiga nisbatan **0,2 foizga** kamayib, tahlil sanasida **19,7 foizni** tashkil etgan.


Shuningdek, **kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE)** 2024 yilning mos davriga nisbatan **5,1 foizga** kamayib, 2025-yilning I yarim yillik yakuniy holatiga **39,8 foizga** yetgan.

Mazkur holat mikromoliya tashkilotlari sof foydasining aktivlar va kapital ko'rsatkichlari o'sish sur'atiga nisbatan nomutanosib ravishda o'sishi bilan izohlanadi.

Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami o'rtacha aktivlari va kapitali 2024-yilning mos davriga nisbatan 2025-yilning I yarim yilligida mos ravishda **1,7 barobar** va **1,4 barobarga** oshgan bo'lsa, sof foydaning o'sishi **23 foizni** tashkil etgan.

22-chizma

Mikromoliya tashkilotlarining rentabellik ko'rsatkichlari dinamikasi



Shu bilan birga, lombardlarda **aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA)** 2024-yilning mos davriga nisbatan 1,4 foizga kamayib, joriy yilning 1-iyul holatiga **55,3 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE)** o'tgan yilning I yarim yilligiga nisbatan 0,5 foizga oshib, hisobot sanasida **51,7 foizga** yetgan.

23-chizma

Lombardlarning rentabellik ko'rsatkichlari dinamikasi

